

## ALOUDDIN BUXORIYNING “SHARHU-L-FIQHI-L-AKBAR” ASARIDA ILOHIYOTGA OID IXTILOFLARNING YORITILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20653982>

**G‘ofurov Abdulloh Xikmatulla o‘g‘li.**

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik*

*akademiyasi ikkinchi kurs doktoranti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Alouddin Buxoriyning “Sharhu-l-Fiqhi-l-akbar” asari asosida ilohiyotga oid teologik masalalar – xususan, Alloh taoloning mavjudligi, yagonaligi va sifatleri haqidagi bahslar tahlil qilinadi. Asarda Moturidiy ta‘limoti doirasida olamning hodisligi va uning yaratuvchisini isbotlashda qo‘llaniladigan aqliy hamda naqliy dalillar ko‘rib chiqiladi. “Tamanu‘ burahoni” (ikki iloh bo‘lish mumkin emasligini isbotlovchi mantiqiy hujjat) Alouddin Buxoriy tomonidan qanday tushuntirilgani va bu masalaga doir boshqa ulamo qarashlari – G‘azzoliy, Imom Taftazoniy, Ibn Arabiy – tahlilga tortiladi.

Shuningdek, Alloh taoloning kalomi masalasi va kalom ilmining tarixi, uning joiz va nojoiz turlari haqida ham batafsil ma‘lumot beriladi. Nemis faylasufi Immanuel Kant hamda qadimgi yunon mutafakkiri Arastuning Alloh taoloning mavjudligiga oid fikrlari ham Qur‘oniy dalillar bilan qiyoslanadi. Maqola teologik muhokamalarni klassik Moturidiy-Hanafiy metodologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qiluvchi ilmiy izlanish sifatida ahamiyat kasb etadi.

### **Kalit so‘zlar**

Alouddin Buxoriy, “Sharhu-l-Fiqhi-l-akbar”, Moturidiy ta‘limoti, kalom ilmi, Alloh taoloning sifatleri, “Tamanu‘ burahoni”, aqliy dalillar, naqliy dalillar, olamning hodisligi, Alloh taoloning kalomi, G‘azzoliy, Immanuel Kant, Arastu, Ibn Arabiy, “al-Fiqh al-akbar”, ilohiyot, aqida.

Moturidiy ta‘limoti, olam, “al-Fiqh al-akbar”, naqliy va aqliy dalillar, “Sharhu-l-Fiqhi-l-akbar” asari, Alouddin Buxoriy, kalom ilmi, Alloh taoloning sifatleri, Qur‘oni karim, “Tamanu‘ burahoni”, G‘azzoliy, Immanuel Kant.

Moturidiy ta‘limotida yozilgan asarlarning o‘ziga xos jihati shundaki, asarda avvalo olamning nimadan tashkil topgani, uning unsure nima ekani haqida bahslar to‘la aks etadi. Olamning nimadan yaratilgani va uning asli nima ekani isbot qilingach uning yaratuvchisi bor ekani haqidagi bahslarga kirishiladi. Bunda albatta, aqliy dalil keltiriladi. Zero, naqli dalil hisoblanmish oyati karima va hadisi

shariflar shariatni isbot qilgandan keyin o'rtaga chiqadigan dalillar hisoblanadiki, Yaratuvchi zotni isbot qilishdan avval bunday dalillarni keltirish ilmiy mezonda xato hisonlanadi.

Shu singari, "al-Fiqh al-akbar" matni ham yaratuvchini isbot qilish bahsi bilan boshlangan. Zero, aqida ilmidagi qolgan barcha bahslar ana shu haqiqatni isbot qilgandan so'ng yuzaga chiqadi.

Naqliy va aqliy dalillar bilan Yaratuvchining bir ekani va maxluqotlardan birortasiga o'xshamasligi sobit bo'lgach, U zotning komil sifatlar bilan sifatlangani ham sobit bo'lgan bo'ladi. Agar Alloh taoloda mazkur sifatlar azalda bo'lmaganida, ular keyinchalik paydo bo'lgan degan ma'no bo'lib qoladi. Oldin bo'lmasdan keyinchalik paydo bo'lish esa maxluqlarning sifatlaridir. Shunga ko'ra Alloh taoloning barcha sifatleri ibtidosi yo'q azaliy va intihosi yo'q abadiy deb e'tiqod qilinadi.

Matnda Alloh taoloning mavjud ekani, U zotning yagonaligi isbot qilingach, U zotning sifatleri bahsi kirishiladi. Sifatlar bahsi aqida ilmining eng katta, eng chuqur bahslaridan hisoblanadi.

"Sharhu-l-Fiqhi-l-akbar" asarida ham shorih Alouddin Buxoriy Alloh taoloning sifatlerini bayon qilishda avvalo, olamning hodisligi yagona yaratuvchi borligini taqozo qilishiga oid aqliy dalillarni keltiradi. Olamning yo'qdan bor bo'lgani aniq bo'lgach, albatta, yo'qdan paydo bo'lgan narsaning yaratuvchisi ham bo'lishi lozim bo'ladi. Bundan esa olamning yagona yaratuvchisi borligi, Uning zotida biror sherigi yo'qligi hamda sifatleri va fe'llarida Unga biror o'xshash yo'q ekani sobit bo'lishini dalil qilgan.

Aqliy hujjatlarni keltirgach, bunga zid e'tiqodda bo'lganlarning da'volarini keltirib, ularga raddiyalar qilgan beriladi. Bu dalil kalom ilmida "Tamanu' burahoni", deb atalib, agar olamning yaratuvchisi ikkita bo'lganida, albatta, ular o'rtasida o'zaro ziddiyat bo'lar edi. Bu esa har ikkalasining yoki ulardan birining hodis ekaniga dalil bo'ladi.

Buning bayoni quyidagicha: agar ulardan biri biror shaxsda hayotni, ikkinchisi o'limni yaratishni iroda qilsa, bunda ikki zid narsaning jamlanishi lozim bo'lib qoladi. Zid narsalarning jamlanishi esa aqlga ziddir.

Alouddin Buxoriy keltirgan ushbu dalil Yaratuvchining bor ekanini isbotlash uchun keltirilgan aqliy dalil hisoblanadi. bu dalil kalom kitoblarida "Burhanu-t-tamanu'" nomi bilan keltirilgan<sup>40</sup>.

<sup>40</sup> Shayx doktor Abdulmalik ibn Abdurrahmon Sa'diy. Sharhu-l-Aqoidi-n-nasafiya. Doru nuri-l-mubin li-n-nashri va-t-tavzi'. Ammon, Urdun. 2016. – B. 52.

Ushbu aqliy dalilga ko'ra biror jihatdan ikkita iloh bo'lishi mumkin emasligi va Yaratuvchining yagona ekani kelib chiqadi. Bu tushuncha quyidagi oyatdan olingan:

لَوْ كَانَ فِيهِمَا آلِهَةٌ إِلَّا اللَّهُ لَفَسَدَتَا فَسُبْحَانَ اللَّهِ رَبِّ الْعَرْشِ عَمَّا يَصِفُونَ

**“Agar u (osmonlaru yer)larda Allohdan o'zga “xudo”lar bo'lganida, buzilib ketar edilar”<sup>41</sup>.**

Alloh taoloning mavjudligi bahsi anchagina bahsli mavzu bo'lib, U zotning mavjud ekanini aqliy dalillar bilan ham isbotlash mumkin, albatta. Bunga yaralish mantiqi qonunini asosiy dalillardan biri sifatida keltiriladi. Bu qonunga ko'ra har bir buyumning o'z ijodkori, yasovchisi bor, har bir maxluqning o'z yaratguvchisi bor. Masalan, gazlamani olib ko'rsak, uning ham to'quvchisi bor. Uning gullarini chizgan musavvir – rassomi bor. Biz ko'rib turgan haykal yoki boshqa biror san'at asarining muallifi noma'lum bo'lsa ham, baribir uni kimdir yasaganini, u o'zicha paydo bo'lib qolmaganini yaxshi bilamiz. Zargarlik buyumlarini zargar yasaganiga aqlimiz yetib turadi. Ana shu narsalar mantiqiga ko'ra koinot – uni yaratgan qudratli Yaratuvchi borligining yaqqol isboti hisoblanadi.

Ba'zi toifalar Alloh taoloni narsalarni yaratgani, U zotni Yaratuvchi ekaniga ishonamiz. Lekin, U zotni O'zini kim yaratgan, degan savolga qanday javob beriladi, deyдилar. Bu haqida ulamolar quyidagilarni aytganlar: Avvalo, bu savol aslida to'g'ri emas. Zero, “Alloh taoloni yaratuvchi” deb tan olib, keyin “Uni kim yaratgan?” deb aytish bir paytning o'zida U zotni ham Yaratuvchi, ham Yaratiluvchi deyish demakdir. Bu aslo bir-biriga to'g'ri kelmaydi, bir-biriga zid va mantiqqa qarshi fikrlar hisoblanadi. Shunindgdek, Yaratuvchini o'z yaratish qonuniga bo'ysundirmoqchi bo'linyapti. Mantiq qonuni esa bizning qonunimiz – odamlar, zamon va makon qonunidir. Zamon va makonni yaratgan Alloh taolo bulardan ancha yuksakda turishi, ya'ni zamon va makon qonunlariga bo'ysunmasligi ayni haqiqat. Allohni zamon, makon va uning qonunlariga bog'liq holda tasavvur mumkin emas. Chunki sababiyatlar qonunini yaratgan Allohni bu qonunga bo'ysundirish haqida o'ylashning o'zi har qanday mantiqqa zid.

Bu savol prujina ustida yuradigan qo'g'irchoqning gaplariga o'xshaydi. Qo'g'irchoq o'zini yasagan odamlar ham prujina ustida yurishi kerak, deb hisoblaydi. Agar unga “odamlar o'zlaricha mustaqil yurishadi”, deyilsa, u: “Yo'q, bu mumkin emas”, deydi. Chunki u biror narsaning o'z holicha yurishini tasavvur qilolmaydi, atrofidagi hamma narsani prujina ustida yurgan holda ko'radi. Bu savol ayni shu misolga o'xshaydi. Atrofdagi hamma narsa Buyuk Xoliqqa muhtoj bo'lgani sababidagina Alloh taolo yaratuvchi va U zot hech narsaga muhtoj emas.

<sup>41</sup> Anbiyo surasi, 22-oyat. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjiması. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent. “Hilol nashr”, 2022.

Nemis faylasufi Immanuil Kant<sup>42</sup> o'zining "Sof aql qarama-qarshiligi" kitobida yozishicha, inson aqli amalda bilimlarning cheksiz sarhadlarini qamrab olishga o'zlik qiladi. Darhaqiqat, aql buyumlar va hodisalarni qisman anglash uchun yaratilgan. Shu boisdan ham aql har qancha zo'r bo'lmasin, Alloh taoloning mavjudligi kabi keng qamrovli tushunchani anglab yetishga aslo qodir emas. Lekin biz Allohni aql bilan emas, qalb bilan his etamiz. Suvga tashnalik suvning mavjudligini isbotlagani kabi adolat uchun intilishimiz – ana shu adolatning mavjudligiga bizning dalilimizdir. Yer yuzida adolat yo'q bo'lsa ham, u tantana qilishi kerak. Bu esa faqatgina oxiratda, adolatli Qozi – Hakam huzuridagina amalga oshadi.

Mantiq fanining asoschisi, qadimiy yunon faylasufi Arastu<sup>43</sup> sabablarning bardavomligi cheksizligidan hatto adashib ketgan. U aytadiki, kursi taxtadan yasaladi, taxtani daraxtdan tilib olinadi, daraxt urug'dan o'sib chiqadi, urug' ekuvchi tomonidan tayyorlanadi va hokazo. Uning tan olishga majbur bo'lishicha, bu davomiylik azaliy bo'lgan, zamon U zotga o'tmaydigan o'zining birinchi manbaiga olib boradi. Bu – yaratuvchiga muhtoj bo'lmagan o'sha Yaratuvchini biz Alloh deb ataymiz.

Mashhur so'fiy olim Ibn Arabiy<sup>44</sup> "Yaratguvchining o'zini kim yaratgan?" degan savolni rad etgani holda bu savol telbalarning miyasidagina paydo bo'lishi mumkin, degan edi. Alloh taolo – bu hamma narsaning mavjudligi dalilidir, bu mavjudlikdan Alloh taoloning borligiga isbot axtarish mumkin emas. «Yorug'lik»

<sup>42</sup> Immanuel Kant (1724–1804) — nemis mumtoz falsafasining eng yirik vakillaridan biri bo'lib, Yevropa ma'rifatparvarligi davrida yashab ijod qilgan mutafakkirdir. U Sharqiy Prussiyaning Königsberg shahrida tug'ilgan va umrining deyarli barchasini shu yerda o'tkazgan. Kant falsafa tarixida bilish nazariyasi, axloq falsafasi, metafizika hamda estetika sohalarida tub burilish yasagan olim sifatida e'tirof etiladi. Kantning asosiy maqsadi inson aqli imkoniyatlari va chegaralarini aniqlashdan iborat edi. Unga ko'ra, inson tafakkuri tashqi olamni to'liq va mutlaq holda emas, balki aqlning o'ziga xos kategoriyalari orqali idrok qiladi. Shu sababli Kant "narsa o'zida" ("Ding an sich") va inson ongida namoyon bo'ladigan hodisalar o'rtasini farqlaydi. Bu qarash keyinchalik "transsendental idealizm" nomi bilan mashhur bo'lgan. Kantning eng mashhur asarlari quyidagilardir: 1. "Critique of Pure Reason" ("Sof aql qarama-qarshiligi", 1781) — bilish nazariyasiga bag'ishlangan asosiy asari. 2. "Critique of Practical Reason" ("Amaliy aql tanqidi", 1788) — axloq falsafasini yoritadi. 3. "Critique of Judgment" ("Hukm qobiliyati tanqidi", 1790) — estetika va teleologiya masalalarini tahlil qiladi.

<sup>43</sup> Aristotle (miloddan avvalgi 384–322-yillar) qadimgi yunon falsafasining eng yirik namoyandalardan biri bo'lib, Sharq va G'arb ilm-fani taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan mutafakkirdir. Sharq manbalarida u "Arastu" nomi bilan mashhur bo'lgan. U Makedoniyaning Stageira shahrida tug'ilgan va yoshligida Plato asos solgan Akademiyada tahsil olgan. Keyinchalik esa o'zining "Likey" (Lyceum) nomli ilmiy maktabini tashkil etgan. Arastu falsafa, mantiq, metafizika, axloq, siyosat, tabiiyotshunoslik va poetika kabi ko'plab fan sohalarida ilmiy meros qoldirgan qomusiy olim hisoblanadi. Ayniqsa, u mantiq ilmini tizimli shaklga keltirib, qiyos (sillogizm) nazariyasini ishlab chiqqani bilan mashhurdir. Shu sababli u ko'pincha "mantiq ilmining asoschisi" deb ataladi.

<sup>44</sup> Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Muhammad al-Hotimiy at-Toiy al-Andalusiydir. U tasavvuf tarixida "Muhyiddin" ("dinni tiriltiruvchi") laqabi bilan mashhur bo'lgan. Ibn Arabiy Andalusiyada tavallud topgan va keyinchalik Shimoliy Afrika, Hijoz, Iroq hamda Shom hududlarida ilm va irfon bilan shug'ullangan. U umrining oxirini Damashqda o'tkazgan va shu yerda vafot etgan. Ibn Arabiy Qur'on, hadis, fiqh va kalom ilmlarini chuqur egallagan bo'lish bilan birga, tasavvufiy tafakkurni falsafiy asosda rivojlantirgan mutafakkir sifatida tanilgan. U ayniqsa vahdat ul-vujud ("borliqning yagonaligi") nazariyasi bilan mashhurdir. Bu qarashga ko'ra, haqiqiy va mutlaq mavjudot faqat Alloh taolo bo'lib, mavjudotlar esa Uning tajalliyarlari va zuhur shakllaridir. Keyingi davr tasavvufida ushbu ta'limot keng muhokama qilingan va turli xil sharh hamda tanqidlarga sabab bo'lgan.

degani kunni anglatadi deyish go'llikdir, lekin «kun» deydigan bo'lsak, albatta yorug'likni tushunamiz. Allohning o'zi bunday deydi: «Men dalil keltiraman, lekin Mening o'zimga dalil yo'q».

Demak, bizning mavjudligimizga, Yer, Quyosh, yulduzlar, Oyning mavjudligiga Allohning o'zi dalildir. Alloh taolo shundayin dalildirki, bunga isbotning keragi yo'q. Chunki bu o'z holicha reallikdir va u yer yuzidagi barcha narsalarning isbotidir. Koinotning qat'iy va mustahkam tartibida, tabiatning buzilmas qonunlarida, olam yaralishining go'zalligida, bizni o'rab turgan hamma narsada - hayot lazzatlari, daraxtlarning yaprog'i, tovuqlar pati, kapalaklar qanoti, gullarning xush bo'yi, bulbullar xonishi, chaqmoqning chaqnashi, shamollar shovqinida, kishilarning fikr va amallarida, koinot deb atalmish bu go'zal va ulug' uyg'unlikdagi yulduzlar va sayyoralarning o'zaro bog'liqligida Alloh taolo ko'rinib turibdi. Agar biz bularning hammasi o'z-o'zidan, tasodifan paydo bo'lib qolgan, deydigan bo'lsak, alifbodagi harf va tovushlarni havoga sochib yuborib, bular Vilyam Shekspirning mashhur sonetiga aylanib qoladi, deb go'llarcha o'ylaydigan kishilarga o'xshab qolamiz.

Qur'on bizni bu bema'ni bahslardan qisqa, aniq va ishonarli oyatlar yordamida qaytaradi:

{ قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ (1) اللَّهُ الصَّمَدُ (2) لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ (3) وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ (4) }

**"1. Ayt: "U Alloh yagonadir". 2. Alloh somaddir. 3. U tug'magan va tug'ilmagan. 4. Va Unga hech kim teng bo'lmagan"**<sup>45</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, Alloh taoloni O'zini kim yaratgan deyish mantiqdan uzoq savol hisoblanadi. Zero, bunday savol Yaratuvchini yaratuvchi ekanini isbot yana uni inkor etish demakdir. Bu esa Yaratuvchini borligiga hali to'liq ishonmaganini belgisi bo'ladi.

Suningdek, sharhda Alloh taoloning kalomi bahsiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Zero, "al-Fiqh al-akbar" matni bu haqida boshqa mavzularga nisbatan ko'proq ahamiyat berilgan. Matnda bu haqida quyidagi ma'lumotlarni o'qishimiz mumkin:

Matnda Alloh taoloning kalomi bahsiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Zero, ushbu mavzu aqida ilmining nozik masalalaridan hisoblanadi. Hatto, hijriy ikkinchi asrda ushbu masala kun tartibidagi end dolzarb bahs hisoblangan. Shu boisdan, ushbu asrda aqida ilmi "kalom" deb ham nomlangan. Bu haqida imom Taftazoniy "Sharhu aqoidin Nasafiy" asarida quyidagilarni aytgan:

<sup>45</sup> Ixlos surasi, 1-4-oyatlar. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimai. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Toshkent. "Hilol nashr", 2022.

“Aqoid ilmining eng mashhur nomlaridan bo‘lgan “Ilmu kalom” ham “Fiqhul akbar” nomi bilan bir asrda vujudga kelgan. “Sharhu aqoid” kitobini tadqiq qilgan Toha Abdur Rauf Sa’d uning muqaddimasida quyidagilarni keltiradi: “Tahonaviy “Kashshofu istilahatil funun” kitobida aqoid ilmining ilmu kalom deb nomlanishiga quyidagi sabablarni ko‘rsatgan:

a) Aqoid ilmining boblariga avvalda “Kalamu fi kaza” (falon narsa haqidagi gap) deb sarlavha qo‘yilgan. Shu sababli bu ilmga ilmu kalom nom bo‘lib qolgan.

b) Alloh taoloning kalomi haqidagi masala o‘sha vaqtlarda aqoid ilmning eng mashhur bahslaridan bo‘lgani sababli bu ilmga kalom ilmi deb nom qo‘yilgan”<sup>46</sup>.

Kalom ilmi bilan mashhur bo‘lgan ushbu ilmga falsafiy qarashlar ham kiritilgan. Bu esa o‘rtada bahs yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bu haqida ustoz Abdulqodir Abdur Rahim o‘zining “E’tiqod durdonalari” kitobi quyidagilarni aytgan:

“Hijriy ikkinchi asrning boshlarida musulmonlar orasidagi e’tiqodiy bahsmunozaralar yangi bosqichga ko‘tarilgan. E’tiqodiy masalalar bahs qilinadigan maxsus davralar paydo bo‘la boshlagan. Bu davralarning yetakchilari, ularga ergashuvchilar hamda bir-biridan farqli qarashlar yaqqol ko‘rina boshlagan. Bularning samarasi o‘laroq turli nomlar bilan ataladigan firqalar shakllana borgan. Ahli sunna val-jamoa bu firqalarni yetakchilarining ismi bilan yo qilayotgan asosiy da’volari bilan yo ajralib turadigan biror sifatleri bilan nomlaganlar.

Mazkur firqalarning vakillari xilma-xil e’tiqoddagi shaxslar bo‘lib, ularning ba’zilari o‘zining noto‘g‘ri e’tiqodida nihoyatda haddan oshgan va islomdan chiqib ketishga yaqin qolgan bo‘lsa, ayrimlari islomga begona bo‘lgan turli falsafiy qarashlarga yopishib olgan edi. Bunday kimsalar e’tiqod haqidagi so‘zlarga falsafiy qarashlarni aralashtirib yuborgan edilar. Taraflar o‘rtasida bugun “falon narsa haqidagi kalom” nomi ostida, ertaga boshqa bir “falon narsa haqidagi kalom” atrofida turli aqidaviy bahsmunozaralar, qattiq tortishuvlar borardi.

Shuning uchun ham jamiyat ahli orasida mazkur shaxslar mashg‘ul bo‘lgan “kalom” bilan shug‘ullanishga shariat nima deyishi haqidagi savollar baralla yangray boshlagan. Tabiiyki, mazkur shaxslarning holatlaridan xabardor Ahli sunna val-jamoa ulamolari bunday “kalom” bilan shug‘ullanishdan saqlanish lozimligini qattiq ta’kidlaganlar. Mazkur “ahli kalomchilar” o‘rtasidagi bahsmunozarlarda sodir bo‘layotgan naqliy dalillarga nisbatan beparvo munosabatda bo‘lish, qarshi tomonni kofirga chiqarish kabi holatlar ulamolarning so‘zlari haq ekanini ko‘rsatib turardi. Ushbu davrlarda Ahli sunna val-jamoa ulamolari “kalom ilmi” bilan shug‘ullanishni qat’i ravishda batamom man qilganlar.

<sup>46</sup> Sa’dud-din Taftazoniy. Sharhu aqoid. – Misr: “Maktabatul Azhariy”, 2000. – B. 8

Keyinchalik “kalom ilmi”ning xatarli jihatlaridan ogohlantirish bilan birga, Qur’on va sunnat asosidagi “kalom ilmi” haqida ham soʻz yuritganlar. Ya’ni endi “kalom ilmi”ni mutlaqo man qilishdan uni joiz va nojoiz turlariga ajratishga oʻtilgan. Bu haqida Gʻazzoliy “Iljamul avam an ilmil kalam” (avom xalqni kalom ilmidan jilovlab qoʻyish) risolasida, Ibn Vaziyr “Tarjihu asalibil Qur’an ala asalibil yunan” (Qur’on uslublarini yunonlarning uslublaridan ustun qoʻyish) kitoblarida bahs yuritganlar.

Shuningdek, Imomul Haramayn, Hulaymiy, Bayhaqiy, Gʻazzoliy, Navaviy va Ibn Asokir kabi ulamolar bu ilmni oʻrganish farzi kifoya hukmida boʻlishini aytganlari rivoyat qilingan. Abul Hasan Ash’ariy rahmatullohi alayh ushbu masalaga bagʻishlab “Istihsanul xovzi fi ilmil kalam” (Kalom ilmiga kirishishni ma’qullash) asarida “kalom ilmi”ga qarshi chiqqanlarning dalillariga javob bergan<sup>47</sup>.

“Qur’on, Alloh taoloning, kalomi mus’haflarda yozilgan, qalblarda yod olingan, tillarda qiroat qilingan, Muhammad alayhissalotu vassalomga nozil qilingan va Qur’onni talaffuz qilishimiz maxluqdir, uni yozishimiz maxluqdir, uni qiroat qilishimiz maxluqdir va Qur’on maxluq emasdir.

Alloh taolo Qur’onda Muso va boshqa nabiy alayhissalotu va salomlardan va Fir’avn va Iblisdan hikoya qilarmoq zikr qilgan narsalarning hammasi Alloh taoloning ulardan xabar bergan kalomidir. Alloh taoloning kalomi maxluq emas. Muso va undan boshqa maxluqlarning kalomi maxluqdir. Qur’on, Alloh taoloning kalomi, qadimdir. Ularning kalomi qadim emas.

Muso alayhissalom Alloh taoloning kalomini eshitgan. Alloh taolo bu haqda **“Va Alloh Musoga oʻziga xos kalom aytdi”**, degan. Batahqiq, Alloh taolo Muso alayhissalomga gapirmaganida ham gapiruvchi boʻlgan. Alloh taolo maxluqotlarni xalq qilmasidan oldin ham azaldan xoliq edi. Unga oʻxshash hech bir narsa yoʻq. U oʻta eshituvchi, oʻta koʻruvchidir.

Alloh taolo Musoga gapirganda Oʻziga azaldan sifat boʻlgan kalomi ila gapirgan. U zotning barcha sifatleri maxluqlarning sifatlariga muxolifdir. U bizning ilmimizga oʻxshamagan ilm ila biladi, bizning qudratimizga oʻxshamagan qudrat ila qodir boʻladi, bizning koʻrishimizga oʻxshamagan koʻrish ila koʻradi, bizning eshitishimizga oʻxshamagan eshitish ila eshitadi, bizning kalomimizga oʻxshamagan kalom ila gapiradi. Biz asbob-aʼzolar va harflar ila gapiramiz. Alloh taolo asbob-aʼzolarsiz va harflarsiz gapiradi. Harflar maxluqdir. Alloh taoloning kalomi maxluq emasdir<sup>48</sup>.

<sup>47</sup> Abdulqodir Abdur Rahim. Eʼtiqod durdonalari. Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2016, 9-10 b.

<sup>48</sup> <https://islom.uz/maqola/66>.  
<https://www.madrasa.uz/books/fiqhul-akbar.pdf>.

Ko'rinib turibdiki, matnda ushbu bahsga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu matn sharhida Alouddin Buxoriy ham bir qancha ulamolarning fikrlarini taqdim qilgan.